

QADIMGI TURKIY MIFOLOGIYAGA DOIR QARASHLAR TALQINI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7699402>



ELSEVIER



Received: 03-03-2023

Accepted: 04-03-2023

Published: 22-03-2023

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,
styajor-tadqiqotchi



Qarshiyeva Shohsanam Abdurashidovna

Abstract: Maqolada qadimgi turkiy misflarning genezesi, mazmun-mohiyati va mifologik motivlар haqida so'z boradi. Qadimgi turkiy adabiyot tadqiqotchilarining mifologiyaga doir adabiy-ilmiy qarashlari va shu yo'nalishdagi ilmiy ishlari tarixiy-qiyosiy aspektida tadqiq qilinadi.

Keywords: Qadimgi turkiy adabiyot, mif, afsona, mifologiya, mifologik motiv, O'rxon-Enasoy yodnomalari..

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 03-03-2023

Accepted: 04-03-2023

Published: 22-03-2023

Abstract: The article talks about the genesis, essence and mythological motives of ancient Turkic myths. Literary-scientific views of ancient Turkic literature researchers on mythology and scientific works in this direction were studied in a historical-comparative aspect.

Keywords: Ancient Turkic literature, myth, legend, mythology, mythological motive, Orhun-Enasoy memoirs.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 03-03-2023

Accepted: 04-03-2023

Published: 22-03-2023

Abstract: В статье говорится о генезисе, сущности и мифологических мотивах древнетюркских мифов. В историко-сопоставительном аспекте изучаются литературно-научные взгляды исследователей древнетюркской литературы на мифологию и научные работы в этом направлении

Keywords: Древнетюркская литература, миф, легенда, мифология, мифологический мотив, мемуары Орхун-Энасой.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Introduction. Islomgacha bo'lgan turkiy adabiyot namunalari mazmunan yetuk, shaklan mukammal. Adabiy janr ko'lami va xususiyati o'ziga xos. Bir so'z bilan aytganda, bu davr adabiyoti qimmatli. Ajdodlarimiz badiiy tafakkurining zakiylik, serjilolik, ijodkorlik va nuktadonlik xususiyati namoyon bo'lgan qadimgi turkiy adabiyotning kompozitsion tugal, mazmunan teran, badiiy jihatdan qimmatli bitiklari, ijod namunalari o'z-o'zidan bu darajaga yetgan emas. Bu davrdagi turkiy adabiyot uchun asos xalq og'zaki ijodi hisoblanadi. O.M.Feymberg bu jarayonni, ya'ni qadimgi turkiy adabiyotning shakllanish jarayoni xalq og'zaki ijodi bilan tutash ekanligini nazarda tutib, bu davrdagi badiiy asarlar "tayyor janr

va syujet asosiga qurilgan"¹ deb izohlaydi. Albatta, bu degani janrlar ham asarlarga asos bo'lgan voqeа-hodisalar, tafsilotlar ham xalq og'zaki ijodida, diniy-ijtimoiy hayotda, urf-odatlarda ham bor edi deganidir. "Umuman, qadimgi turkiy adabiyot turkiy mif va afsonalardan boshlab kuzatiladi"².

Material and Methods

Qadimgi turkiyzamin mif va afsonalarining ko'pchiligi olam va odamning yaratilish tarixi xususida. Ular turkiy qavmning o'zlarini qurshab turgan tabiatni, olamni anglash, yaqindan bilish istagi natijasida maydonga kelgan. Dastlab miflar, ularning zamiridan afsonalar paydo bo'lgan.

Qadimgi turkiy mifologiya (mif va afsonalar) ham qadimgi davrdagi qimmatli adabiy yodgorliklarimizdan hisoblanadi. Shu jihatdan bu ibtidoiy badiiy yaratiqlarning o'rganilishi, mifologik nazar va ilk badiiy tafakkur motivlari yuzasidan adabiy-ilmiy qarashlar, badiiy talqin va tadqiqlar masalasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Qadimgi xitoy yilnomalarida, ayrim arab, fors va boshqa manbalarda turkiy miflardan namunalar saqlanib qolgan. Dastlabki turkiy mifologiyaga doir qarashlar yunon-rim tarixchilarining asarlarida uchraydi. Shuningdek, boshqa jahon olimlari ham turk xalqining mif va afsonalari to'g'risida o'z tadqiqotlari orqali teran adabiy mushohada, izchil va ahamiyatli mulohaza yuritgan va ularni o'z tadqiqotlarida aks ettirgan.

Biz avvalgi maqolalarimizda O'zbekistonda qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tadqiqi yuzasidan faoliyat olib borgan olimlarning ilmiy mehnatlari haqida ma'lumotlar berib o'tgan edik. Bu jarayonda, ya'ni turkiy adabiyotning eng qadimgi davri adabiy namunalari bilan shug'ullangan tadqiqotchilarning ilmiy asarları, dissertatsiyalari va maqolalarini tekshirish bilan bir qatorda shohidi bo'ldikki, turkiy yozma yodgorliklarga murojaat qilgan olimlarning ko'pchiligi qadimgi mif va afsonalar haqida ham to'xtalib o'tgan. Bu esa, albatta, tabiiy hol. Xususan, filologiya fanlari nomzodi professor Nasimxon Rahmonov "Ruhiyatdagi nur murodi", "O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari"(1-jild) (Hammual.: H.Boltaboyev), "O'zbek adabiyoti tarixi" (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha) o'quv qo'llanmasi, "Turkiy yozma yodgorliklar va folklor", "O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari", "Bitiglar olamida", "Inson ruhining sadosi" va "Folklorizm va mifologizatsiya" kabi asarlarida qadimgi turkiy mif va afsonalarga nisbatan o'z munosabatini bayon etadi. "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobining birinchi bobi (Islomgacha bo'lgan davrdagi qadimgi turkiy adabiyot) "Qadimgi mif va afsonalar" mavzusi bilan boshlanadi. Nasimxon Rahmonov mifni og'zaki adabiyotning shakli sifatida talqin qilar ekan, "Mif nima?" degan o'rinni va ayni paytda turli-tuman izohlarga ega bo'lgan savolga aniqlik kiritadi: "Bu savol

¹ Tamarchenko N.D, V.I.Tyupa, Byortman S.N. Теория литературы. ikkinchi tom. 12-b

² Rahmonov N. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. Toshkent. Mumtoz so'z. 2016-y. 18-b.

har doim ko'ndalang bo'lib turadi. Mif sodda qilib aytganda, olamning yaratilishi, insoniyatning kelib chiqishi, shuningdek, xudolarning, qahramonlarning paydo bo'lishi, ularning faoliyati haqidagi badiiy, sodda va ko'pincha g'alati ko'hna badiiy tafakkur mahsuli bo'lgan adabiy parchadir".³ Shu o'rinda olim mif va afsonani ham farqlab ketdi. Turkolog O.M.Freydenbergning "Miflar – biz hozirda afsona deb ataydigan muqaddas rivoyatlar xarakterini qabul qiladi. Mif bilan afsona o'rtasidagi farq tushunarli: mif – tafakkurning beixtiyor shaklidir, afsona – ongli ijodning mahsulidir"⁴ degan fikrlarini yoqlaydi. Shuningdek, kitobda miflarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillar, ibtidoiy jamiyatda mifning xususiyatlari, to'fon haqidagi mif va uning qadimgi turkiy yodgorliklardagi ko'rinishi, Tangri timsolining qadimgi turkiy yodgoriklaridagi vazifasi, turkbudda mifologiyasi, Umay kultining vazifasi, Mahmud Qoshg'ariy Umay kultini qanday tahlil qilgani to'g'risidagi tarixiy-ilmiy farazlarini, adabiy va nazariy qarashlari fonida tahlil qiladi.

Results. O'rxunEnasoy yozma yodgorliklaridan Kul tigin bititoshining birinchi misrasida olamning va odamning genezesi haqidagi mif mavjud: *Uza ko'k tangri asra yag'iz yer qilintuqta akin ara kisi o'g'li qilinmis. Kisi o'g'linta uza achum apam Bo'min qag'an, Istami qag'an o'lurmis, o'luripan turk bo'dunin alin to'ru sin tuta birmis, ita birmis* – Yuqorida ko'k osmon, ostda qora yer qilinganda. Ikkovining orasida inson bolasi yaratilgan. Inson bolasi ustidan otabobom Bo'min xoqon, Istami xoqon o'tirganlar, o'tirib, turk xalqining davlatini, qonunqoidalarini ushlab turgan, rioya qilib turgan"⁵. Kul tigin yodnomasidan olingan ushbu parcha olamning paydo bo'lishi haqidagi miflar sirasiga mansub. Bilga xoqon, Moyunchur bitiktoshlarining kirish qismidayoq mifga duch kelamiz. Buni Nasimxon Rahmonov obidalarning boshlanishida epik ruhning yetakchiligi, eposlarning asosini esa miflar tashkil etishi bilan izohlaydi. Insoniyat qilgan gunohlari uchun tangrining qahriga uchrab jazolanishi – Sharq xalqlari miflari uchun umumiyl motivlardan biri. "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida bitiklardagi xuddi shunday motivga yo'g'rilgan o'rinalar keltiriladi. Bilga xoqon o'z qavmiga nasihat qila turib, mammalakatining barbod bo'lishida Tangri (xudo va osmon) ularning qilgan gunohlari uchun ham jazolaganligiga ishora qilinadi: "Turk o'g'uz baglari boduni asiding! Uza tangri basmasar, asra yir talinmasar, turk bo'dun, ilingin, to'ungin kim artati?"⁶ Ma'nosi: Ey turk o'g'uz beklari, xalqi, eshititing! Yuqorida osmon bosmagan bo'lsa, pastda yer yorilmagan bo'lsa, ey turk xalqi, davlatingni, qonun-qoidalaringni kim yo'q qildi? Xuddi shunday motiv yetakchilik qilgan mif Irq bitigida ham uchraydi. U ham muallif tomonidan adabiy-ilmiy tahlilga tortiladi.

³ Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. "Sano-standart". 2017. 11-b

⁴ Фейденберг О.М.Миф и литература древности.М.:Главная редакция восточной литературк, 1978, с.119.

⁵ Jo'raqo'ziyev N. "Представления древних тюрков о мирозданию – Российская тюркология. № 1(6) 2012. РКТ при ОИФН РАН. – Москва-Казань. С.91-96

⁶ Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. "Sano-standart". 2017. 15-b

Shuni alohida ta'kidlash joizki, turkiy mifologiyaning ibtidosi O'rxun-Enasoy obidalarining topilishi va o'rganilishiga borib taqaladi. Shu jihatdan ma'lumki, O'rxun-Enasoy obidalari tadqiqi bilan shug'ullangan olimlarimiz, albatta, bu mavzuga ham e'tibor qaratishgan. Nasimxon Rahmonov "Inson ruhining sadosi" asarida ham Irq bitigidagi mifologik motivlar masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. Irq bitigidagi voqeа-hodisalar, tavsiot va tasvirlarni mifologik pafos bilan uyg'unlikda ekanligini yaxshi angraydi va uni tahlil qiladi. "Irq bitigida folklor motivlarini ham kosmogonik va kalendar mifni ham, totemistik mifni ham lirik kayfiyatni ham tabiatning jonli tasvirini ham kuzatamiz"⁷. Muallif mashhur folklorshunos A.N.Pantusovning Ili uyg'urlaridan yozib olgan etnografik ma'lumotlari Irq bitigidagi kichik-kichik hikoyachalarning g'oyasini ohib berishga xizmat qilishini, Irq bitigidagi voqealar bilan Ili uyg'urlarining e'tiqodi o'rtasidagi uyg'unlikni bir-necha misollar bilan ko'rsatib beradi. Ili uyg'urlarining e'tiqodiy nazariga ko'ra odam tushida burgut yoki qora qushni ko'rsa, boy bo'ladi degan faraz mavjud. Irq bitigidagi quyidagi tasvirlar bu holatga juda o'xshash. "(men) yorug' (ya'ni - oq N.R.) rangli burgut qushman, sandal yog'ochi ustida o'tirib, xursand bo'laman, shunday bilinglar: yaxshidir bu".⁸ Yana bir epizod: "Oltin qanotli jasur qora qushman, tanam yana butunlay qurimasdan, dengizda yotib topgan narsamni tutaman, yaxshi ko'rgan ovqatimni yeyman, shunday kuchliman, shunday bilinglar: yaxshidir bu".⁹ Anglashiladiki, olim O'rxun-Enasoy obidalaridagi mifologik tasavvurlarni manbalardagi aniq misollar orqali ohib bergen. Shuningdek, olim "Xuastuanift", "Oltin Yorug'" asarlari "O'rxun-Enasoy yodnomalarini va turkiy eposlar munosabati" doktorlik dissertatsiyalarida turkiy mifologiyaga oid qimmatli fikrlarni berib o'tadi. "Xuastuanift"dagi mifologik holat va mifologik obrazlarni "Avestoda"gi obrazlar bilan qiyosiy-tarixiy metodda tadqiq qiladi.

Nasimxon Rahmonovning V-VIII asarlar oralig'idagi turkiy adabiyotning shakllanish jarayoni, sog'lom ma'naviy muhitning adabiyotni shakllantirishdagi xizmatlari tahlil etilgan "Ruhiyatdagi nur murodi" monografiyasida ham O'rxun yodnomalarida mifologik tasavvur masalasi ko'tariladi. Olimning mifologik tasavvurlar haqida so'z yuritishdan maqsadi mifologik motivlar asosida shakllangan obrazlarning genezesi masalasiga oydinlik kiritishdan iborat. Tadqiqotchi qadimgi turkiy yodgorliklarning yozma adabiyot sifatida shakllanishida muhim vazifa bajargan tangri, yer-suv, o't-suv, o'rmon va tog' kult'lari, ya'ni, mifologik obrazlar haqida va ularning yodnomalardagi eng ko'p tarqalgan uch qavatli olam modelini tasvirlaganligini qayd etadi. Bu kult'larni mif

⁷ Rahmonov N. Inson ruhining sadosi.Toshkent.O'zbekiston. 1986-y 10-bet.

⁸ Rahmonov N. Inson ruhining sadosi.Toshkent.O'zbekiston. 1986-y 10-bet.

⁹ Rahmonov N. Inson ruhining sadosi.Toshkent.O'zbekiston. 1986-y 11-bet.

va afsonalarga asos bo'lgan deb biladi va bu janrning mohiyatiga chuqurroq to'xtaladi.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tadqiqotchisi, sinchkov va talabchan olim Nasimxon Rahmonovning yana bir ahamiyatli ilmiy kitobi "O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari" (Eng qadimgi davrdan XIV asrgacha)da qadimgi mif va afsonalarga alohida urg'u berilgan. Olimning qadimgi turkiy adabiyotning bиринчи bosqichi bo'lgan bu ixcham epik janrning mohiyatiga to'xtalib: "...mif va afsonalar adabiy jarayonning ilk ko'rinishi sifatida emas, balki turkiy qavmlarning falsafiy qarashlari, ruhiy olami, ibtidoiy ilmiy qarashlari bu mif va afsonalarda muhrlangan"¹⁰ deya ta'kidlashi ahamiyatlidir. Kitobga "Olamning yaratilishi", "Odamning yaratilishi", "To'fon", "Sikiflar to'g'risidagi afsonalar", "To'maris", "Shiroq" va "Erguna kun" kabi mif va afsonalar kiritilgan. Nasimxon Rahmonov qadimgi turkiy mif va afsonalarni bevosita diniy oqimlarning ta'sirida paydo bo'lgan deya juda to'g'ri munosabat bildiradi va munosabatning sabablarini o'zining ilmiy farazlari orqali dalillaydi. Bu fikrlar olim Abduqodir Inonning "Tarixda va bugun shomonizm" asaridagi "Mif va afsonalar nafaqat badiiy fikrlash uchun, balki diniy oqimlar uchun ham ilk manbalar hisoblanadi. Masalan, olamning yaratilishi haqidagi turkiy mifda shomonlik kul'tlari va buddaviylik aqidalari asos bo'lib xizmat qiladi"¹¹ degan fikrlari bilan uyg'unlashib ketadi. Har ikki olimning fikrlari bir-birini to'ldiradi.

Qadimgi turkiy adabiyot mutaxasisi, olim M.Mamatqulovning ilmiy asarlarida ham turkiy mifologiyaga oid qimmatli ilmiy-adabiy ma'lumotlar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan poetik uslubda tahlil qilinadi. Qadimgi turkiy adabiyotning dolzarb masalalari bilan shug'ullangan tadqiqotching O'rxun-Enasoy obidalarining janr xususiyatlari, moniylik, shomoniylik va buddaviylik mifologiyasi haqidagi teran mushohadalari, ilmiy-nazariy qarashlari e'tiborga molik. Olim, ayniqsa, moniylik mifologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, moniylik mifologiyasi va zardushtiylik munosabati masalalariga to'xtalib, moniylik oqimiga aloqador mifologik obrazlarni tahlil qiladi.

Filologiya fanlari doktori M.Jo'rayev "O'zbek xalq samoviy afsonalarining tarixiy asoslari" doktorlik dissertatsiyasida o'zbek xalq afsonalarining ildizi qadimgi miflarga borib taqalishini aytadi. Afsonalar bilan miflar o'trasidagi uzviy bog'likni syujet chizig'i, g'oyaviy maqsad, sayyor va ramziy obrazlar orqali isbot qilishga urinadi. Ular orasidagi mifologik motiv ham bir-biridan ayricha emas, balki, biri ikkinchisini to'ldirib turishi seziladi. Shuningdek, olim mif haqida fikr yuritib, unga quyidagi ta'rifni beradi: "Bizningcha, olam haqidagi qadimgi odamning ilk tasavvurlari bo'lsa-da, u nima bilandir ifodalangan so'z vositasida

¹⁰ Rahmonov N. Boltaboyev H. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari(1-jild). Toshkent. Fan nashriyoti. 2003-y. 9-b.

¹¹ Abduqodir Inon. Tarixda va bugun shomonizm. – Anqara, 1954. 20-21 b.

bayon qilingan bo'lishi kerak. Ana o'sha ifodalangan narsa, qadimgi odam tasavvurini o'zida aks ettirgan yoki hikoya qilib bergen narsa - mifdir. Kosmogonik mif va e'tiqodiy qarashlar qadimgi odamning olam haqidagi eng ko'hna ibridoiy tasavvurlari yig'indisidan iborat bo'lsa, samoviy afsonalar ana shu mifologik inonchlar sistemasining xalq xayoloti prizmasi orqali o'tib, asrlar davomida badiiy jihatdan takomillashtirilgan, ya'ni, kosmonogik miflarning hikoyaviy shaklda bayon qilingan folklor asariga aylangan ko'rinishidir. Ular sodda mifik tasavvur tarzida mavjud bo'lgan"¹² deydi.

Conclusion. G'.Akramov esa qadimgi miflarning boshqa adabiy janrlar bilan munosabati masalasiga to'xtaladi. Qadimgi turkiy bitiklardagi tangri, Umay haqidagi qarashlarga fikr bildirib turkiy bitiklarda mif va yozma adabiyotning boshlang'ich munosabatlari shakli yetakchidir degan xulosaga keladi. Shunisi borki, qadimgi turkiy bitiklarda mifologik syujet, xususan, uch qavatli olam modeliga oid mif Kultegin bitiktoshining birinchi satrida va "Irq bitig"ida saqlangan.

Acknowledgement. O'zbek adabiyotining qadimgi davrlari bilan jiddiy qiziqib ilmiy tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilardan yana biri N.Jo'raqo'ziyev "Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar va turkiy folkorda kosmogonik mifologiya" mavzusidagi doktorlik dissertatsiaysida qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda mif badiyatining xususiyatlari haqida ilmiy nazariyalar, adabiy qarashlar bildirib "Bu miflar har qanday matnning badiiy asar sifatida o'qilishiga sabablardan biri bo'ladi"¹³ deb yozadi. Juhon va turkiy mifologiyaga batafsil to'xtalib, miflarnik kosmogonik turi va uning o'rganilishi masalalari yuzasidan tadqiqot olib boradi. Inson tafakkurining ibridoiy shakli, badiiy adabiyotning dastlabki ko'rinishi bo'lgan mif va afsonalar, ulardagи syujet, kompoitsion yo'nalish va obrazlardagi mifologik pafos tadqiqotchilarimizning diqqat-e'tiborida bo'lgan. Mif va afsonalar epik janrlarning genezesi va tadrijiga asos bo'lgan. Turkiy mifologiyaning ildizi qadimgi turkiylar e'tiqod qilgan moniylik, shomonlik, buddaviylik kabi diniy oqimlarga borib taqaladi. Manbalardan asoslanishicha, mifologik tasavvurlarning boyitilishida, ayniqlsa, shomonlik dinining ta'siri yuqori. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tadqiqotchilarining xulosalaridan ma'lumki, O'rxun-Enasoy obidalarining yaratilishiga turk xalqi og'zaki ijodi asos bo'lgan. Qadimgi turkiy mifologiya esa xalq og'zaki ijodi bilan bir xil. Demak, O'rxun-Enasoy obidalarining zamirida ham turkiy xalqlarning dastlabki adabiy qarashlari, olam va odam haqidagi tasavvurlari mujassam bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

¹² Jo'rayev M. "O'zbek xalq samoviy afsonalarining tarixiy asoslari" Filol. Fan.dok. diss. – Toshkent. 1996. –30-b.

¹³ Jo'raqo'ziyev N. "Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar va turkiy folkorda kosmogonik mifologiya" mavzusidagi dok. diss.

1. Rahmonov N. Boltaboyev H.O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari(1-jild). Toshkent. Fan nashriyoti. 2003-y.9-b.
2. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. "Sano-standart". 2017. 15-b
3. Rahmonov N. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. Toshkent. Mumtoz so'z. 2016-y. 18-b.
4. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent. "Xalq merosi" nashriyoti, 2002. 10-28 b.
5. Rahmonov N. Inson ruhining sadosi.Toshkent.O'zbekiston. 1986-y 10-b.
6. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyot poetikasi. Guliston. 2008-y. 20-b.
7. Abduqodir Inon. Tarixda va bugun shomonizm. - Anqara, 1954. 20-21 b.
8. Jo'raqo'ziyev N. "Представления древних тюрков о мирозданию – Российская тюркология. № 1(6) 2012. РКТ при ОИФН РАН. – Москва-Казань. С.91-96
9. Фейденберг О.М.Миф и литература древности.М.:Главная редакция восточной литературы, 1978, с.119.
10. Tamarchenko N.D, V.I.Tyupa, Byortman S.N. Теория литературы. ikkinchi tom. 12-b